O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar- sentabr oylari uchun

I. Joriy davrda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni

II. O‘zbekiston sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar


I. Joriy davrda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, respublikada 66,0 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ular asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tahlil qilinganda eng katta qismi quyidagi yo’nalishlarga tegishli bo’ldi:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 13,3 mingta (20,2 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 9,2 mingta (13,9 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 6,8 mingta (10,3 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 5,4 mingta (8,2 %);
- mebel ishlab chiqarish – 4,5 mingta (6,9 %);
- to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 4,0 mingta (6,1 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 3,0 mingta (4,6 %)ga to‘g‘ri keldi.

1-rasm. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-oktabr holatiga



II. O‘zbekiston sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

2026-yilning yanvar–sentabr oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi hajmi joriy narxlarda **1085,7** trln so‘mni tashkil etdi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **8,1** %ga oshgan.

1-jadval. Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi hajmi va fizik hajm indeksi

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	**1 085 692,2**	**108,1**
hududlar:		
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	27 841,9	107,1
Andijon viloyati	87 509,4	108,1
Buxoro viloyati	46 339,0	108,7
Jizzax viloyati	37 972,4	113,1
Qashqadaryo viloyati	48 082,8	108,4
Navoiy viloyati	228 966,7	107,4
Namangan viloyati	40 309,9	109,0
Samarqand viloyati	60 217,8	109,5
Surxondaryo viloyati	22 552,3	108,6
Sirdaryo viloyati [1)]	24 346,0	108,2
Toshkent viloyati	175 544,9	108,4
Farg‘ona viloyati	55 134,7	108,5
Xorazm viloyati	32 372,6	108,6
Toshkent shahri	187 230,9	107,9

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari (oylik)
Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari (yillik)
Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi (oylik)
Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi (yillik)


Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi (**27,6** mln so‘m), eng yuqori ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati (**192,4** mln so‘m), Toshkent shahri (**57,6** mln so‘m) va Toshkent viloyatida (**46,4** mln so‘m) qayd etildi.

Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati **106,2** % ni tashkil etdi. Bunda Jizzax viloyati – **111,0** %, Samarqand viloyati - **107,4** %, Buxoro viloyati – **107,1** % va Namangan viloyati – **107,0** % o‘sish sur’ati bilan respublika ko‘rsatkichidan yuqori natijaga erishdi.

[1)] viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini hisobga olgan holda.

2-rasm. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-sentabr oylarida




Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (oylik)

Respublika sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri keldi. Uning umumiy hajmi **943,2** trln so‘mni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **86,9** %ga yetdi. Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash **66,1** trln so‘m (**6,0** %) tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **70,3** trln so‘m (**6,5** %), hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish **6,1** trln so‘m (**0,6** %) hajmni tashkil etdi.

3-rasm. Sanoatning asosiy seksiyalari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi
va fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-sentabr oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta seksiya B, C, D, E dan iborat:
B - tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;
C - ishlab chiqarish sanoati;
D - elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash;
E - suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan.

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yil yanvar-sentabr oylarida respublikamizda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: tabiiy gaz – **27,0** mlrd m³, neft – **482,2** ming t, ko‘mir – **5,4** mln t, avtomobil benzini – **913,2** ming t, dizel yoqilg‘isi – **979,0** ming t, portlandsement – **16,2** mln t, ip kalava – **647,4** ming t, yumshoq bug‘doy va spelta uni – **1 095,7** ming t.

2-jadval. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	**2024-yil** yanvar- sentabr[1)]	**2025-yil** yanvar- sentabr[1)]	**2026-yil** yanvar- sentabr
Avtomobil dvigatellari, dona	187 127	174 826	184 686
Avtomobil benzini, ming t	998,0	890,1	913,2
Dizel yoqilg‘isi, ming t	796,8	876,1	979,0
Ko‘mir, mln t	5,3	5,8	5,4
Neft, ming t	542,2	490,1	482,2
Tabiiy gaz, mlrd m³	33,7	32,3	27,0
Gaz kondensati, ming t	923,1	849,2	729,2
Portlandsement, mln t	11,9	15,7	16,2

[1)] 2024-2025-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan.

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Qayta ishlash sanoatida oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi **21,0** %ni, to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, charm va undan tayyorlangan buyumlar ulushi **11,7** %ni tashkil etadi. Mashina va uskunalar, kompyuterlar, elektron va optik buyumlar, elektr jihozlari, boshqa guruhlarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar, boshqa transport vositalari, shuningdek, mashina va

uskunalarni ta’mirlash hamda o‘rnatishdan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish ulushi **15,9** %ga, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari ulushi esa **6,4** %ga tengdir.

3-jadval. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar soni
yanvar- sentabr oylarida, donada

Sanoat mahsulotlari	**2025-yil** yanvar-sentabr[1)]	**2026-yil** yanvar- sentabr
Yuk avtomobillari	*3 615*	*4 447*
Yengil avtomobillar	*326 370*	*356 318*
shundan:		
Maxsus yengil avtomobillar	*39 169*	*43 098*
“Cobalt”	*116 008*	*120 672*
“Damas”	*67 879*	*63 401*
“CHEVROLET DAMAS MOVE”	-	*2 137*
“Tracker”	*34 179*	*34 080*
“Onix”	*22 598*	*27 247*
“KIA”	*19 633*	*24 801*
“Chery”	*6 882*	*7 221*
“Haval”	*6 245*	*6 953*
“BYD”	*13 730*	*26 706*
“TANK 500”	*47*	*2*

[1)] 2025-yilning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan.

4-jadval. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlari hajmi
(yanvar–sentabr oylarida)

Sanoat mahsulotlari	**2025-yil** yanvar-sentabr[1)]	**2026 yil** yanvar-sentabr
Paxtadan yigirilgan ip, t	426 937,4	647 403,1
85% yoki undan ortiq paxta tolasidan iborat paxta matolari, ming kv.m	72 540,9	94 228,7
Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan trikotaj polotnolar, t	59 623,0	60 359,6
Trikotaj yoki to‘qilgan ustki kiyimlar, ming dona	47 996,4	38 660,8
Trikotaj ichki kiyimlar, ming dona	77 435,4	105 368,1

[1)] 2025-yilning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan.

Elektr ta’minoti, gaz, bug‘ yetkazib berish va havoni konditsiyalash seksiyasi bo‘yicha

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida **67 159,5** mln kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **7,3** %ga ko‘p (elektr energiyasi ishlab chiqarish asosiy faoliyat turi bo‘lmagan kichik tadbirkorlik subyektlari va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hisobga olinmagan).

Yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmi esa **19,3** %ga kamaygan.

5-jadval. Elektr energiyasi va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

Sanoat mahsulotlari	**2024-yil** yanvar-sentabr[1)]	**2025-yil** yanvar- sentabr[1)]	**2026-yil** yanvar-sentabr
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt soat	**60 262,4**	**62 565,2**	**67 159,5**
shundan:			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma’lumotlariga asosan)	*53 413,9*	*45 100,5*	*44 402,6*
kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma’lumotlari asosida)[2)]	*6 848,5*	17 464,7	*22 756,9*
Issiqlik energiyasi, ming Gkal (yirik korxonalar)	*16 538,0*	14 423,8	11 639,9

[1)] 2024-2025-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan.

[2)] Asosiy faoliyati elektr energiyasi ishlab chiqarish bo‘lgan kichik korxonalar.

6-jadval. Suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi va chiqindilar bo‘yicha ayrim ko‘rsatkichlar

Sanoat mahsulotlari	**2024-yil** yanvar- sentabr[1)]	**2025-yil** yanvar- sentabr[1)]	**2026-yil** yanvar- sentabr
Oqova suvlarni chiqarib tashlash, tashish va tozalash xizmatlari, mlrd so‘m	477,9	534,6	616,6
Chiqindi o‘ralari, tindirgichlar va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish xizmatlari, mln so‘m	305,5	310,6	311,2
To‘qimachilik chiqindilari, t	13 954,7	22 857,6	21 840,5

[1)] 2024-2025-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

Mahsulot turlari bo‘yicha **sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to‘g‘risidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (O‘zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda shakllantiriladi. Bularga tog‘-kon sanoati, qayta ishlash sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv ta’minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish hamda utilizatsiya qilish (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Ayrim hollarda yakuniy qiymat va qo‘shiluvchilar yig‘indisi o‘rtasidagi kichik tafovutlar raqamlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.

Foydali havolalar

https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida

https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom

Tayyorlash uchun mas’ul:
Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
O. Izmailov
+998 71 203-80-00 (1205)

Manzil: